

---

## Farg'onada "UzWaterAware" ekomarafoni o'tkazilmoqda

Qo'qon shahrida Yevropa Ittifoqi moliyaviy ko'magida "Suv va ekologiyani rivojlantirish bo'yicha savodxonlikni va hamkorlikni oshirish" dasturi doirasida o'tkazilayotgan ekomarafonga start berildi. Unda Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlaridagi fermer xo'jaliklari rahbarlari, shahar hokimligi vakillari, Obodonlashtirish boshqarmasi mutaxassislari, talabalar va jurnalistlar ishtirok etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologiya markazi tomonidan Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya qo'mitasi, Qo'qon shahar hokimligi, "Salomatlik+ekologiya" NNT hamkorligida o'tkazilayotgan ushbu ekomarafonning asosiy maqsadi suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy, tejamkor texnologiyalardan foydalanish va ushbu g'oya ostida keng jamoatchilik vakillari, shu sohaga daxldor sub'ektlarni "suv tejamkorligi" g'oyasi ostida birlashtirishdan iborat.

Ekomarafon davomida suv resurslarini tejash bilan bog'liq mavzularda mahalla faollari, shifokor va o'qituvchilar, ayollar, bolalar, o'quvchi va talabalar ishtirokida seminar-trening va eko-darslar bo'lib o'tadi. Viloyatdagi suv resurslari va ekoharakatga oid nodavlat notijorat tashkilotlari bilan uchrashuvlar uyushtiriladi.

2019-03-26 10:25:38